

## SO`NGGI BESH YILLIKDA YANGI O`ZBEKISTONDAGI TUB ISLOHOTLAR: UCHINCHI RENESSANS YOXUD INSON QADRI UCHUN

Abdusalomova Xadicha G`ayratjon qizi

*Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti Professional ta`lim fakulteti Tasviriy san`at va muhandislik grafikasi yo`nalishi 3-kurs talabasi  
Ko`chiyeva Dinara Isomidin qizi*

*Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti Professional ta`lim fakulteti Tasviriy san`at va muhandislik grafikasi yo`nalishi 3-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Maqolada bugungi kunda yuqori salohiyatlari xalqimiz o`zining g`ayratshijoati va fidokorona mehnati bilan yurtimizda Yangi O`zbekiston va uning Uchinchi Renessansni barpo etish yo`lida amalga oshirilayotgan tub islohotlar ma`no-mazmuni haqida so`z boradi.

**Kalit so`zlar:** Islohot, Uchinchi Renessans, Yangi O`zbekiston, salohiyat, fidokorlik, rivojlanish, madaniyat, yuksaklik, xizmatlar, innovatsiya.

Hozirgi vaqtida mamlakatimizda yana bir muhim Uyg`onish jarayoni kechmoqda. Shuning uchun “Yangi O`zbekiston” va “Uchinchi Renessans” so`zлari hayotimizda o`zaro uyg`un va hamohang bo`lib yangromoqda, xalqimizni ulug` maqsadlar sari ruhlatirmoqda.

Shavkat Mirziyoyev Davlatning vazifasi insonlarni baxt-saodatga olib borishdir. Bu esa ilm va yaxshi axloq yordamida qo`lga kiritiladi. Bugun yurtimizda amalga oshirilayotgan ishlar, ilm-ma`rifat sohasidagi ulkan o`zgarishlarni tahlil etganimizda, har gal ulug` alloma- Farobiyning yuqoridagi so`zлari qulog`imiz ostida jarang sochaveradi.

O`zbakistonda tarixan juda qisqa fursatda butunlay yangicha siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-ma`rifiy va madaniy muhit yaratildi. Bu esa mamlakat obro`-e`tibori va nufuzini oshirishga xizmat qilayotgan yuksalishlarga asos bo`lmoqda.

Ko`hna moziy guvohki, dunyoni doimo g`oyalar boshqargan. G`oyalar esa mudom bilim, tafakkur va aql kuchiga suyangan. Bugungi rivojlanish shiddati tez, ilm ufqlari kengayib borayotgan zamonda, qolaversa, axborot vositalari taraqqiy etgan davrda g`oyalar uchun kurash ham birmuncha murakkabliklar hamda o`tkir faoliyatni talab qilishi tayin. Ammo insoniyat o`z tabiatiga ko`ra, baribir bir ezgu g`oyaga muhtojlik sezib yashaydi. Shu ma`noda, bugungi yangi O`zbekiston tarixi zarvaraqlariga bitilayotgan bir jumla- Uchinchi Renessans tagmatnida ana shunday ulug` bir ezgulikni, buyuk bir kuchni anglash mumkin.

Bugun O`zbekistonda amalga oshirilayotgan shiddatli islohotlar, qabul qilinayotgan qarorlar, oldimizda turgan siyosiy tadbirlar, mamlakatimiz, xalqimiz va millatimizning kelgusida asrlar davomida rivojlanishiga mustahkam asos bo`lishi, shubhasiz. Zero, davlatimiz rahbari ta`kidlaganidek, “Bugungi murakkab sharoitda yurtimizda boshlangan keng qamrovli islohotlar, yangi O`zbekistonni barpo etish sari tashlayotgan dadil qadamlarimizning bardavom bo`lishini ta`minlash eng asosiy vazifamiz bo`lishi shart.”

Mustaqil taraqqiyot yo`limizni tahlil qilar ekanmiz, keyingi besh yil ichida

mamlakatimiz hayotining hamma jahbalarida- siyosatda, iqtisodiyotda, ijtimoiy va boshqa sohalarda juda katta, aytish joizki, inqilobiy o`zgarishlar amalga oshirildi va bu islohotlar Vatanimizning tinchligi va oobodligi, iqtisodiyotimizni rivojlantirish, xalqimizni rozi qilish va farovon yashashini ta'minlashga qaratilgan.

Shuni alohida e'tirof etish kerakki, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev dunyo davlatlari rahbarlari orasida birinchi bo`lib “Xalqimiz kelajakda emas, bugun ham yaxshi yashashi kerak”, degan ulug` maqsad, ezgu vazifani ilgari surdi va buning yechimini ham topib berdi. Ayniqsa, Uchinchi Renessans g`oyasi nihoyatda ajoyibdir. Sababi, bugungi ilm-fanga asoslangan, dunyoni faqatgina ilm bilan boshqarish mumkin bo`lgan zamonda shunday g`oyalargina qudratli kuch kasb eta oladi. U o`z faoliyatini islohotchilik ruhida boshladi va atigi besh yil ichida O`zbekistonni butunlay yangi rivojlanish bosqichiga olib chiqdi.

Buyuk Britaniyaning eng murakkab davrdan munosib olib chiqqan mashhur siyosatchi, haqiqiy lider Uinston Cherchil : “Buyuklikning qadr-qimmati mas’uliyat bilan o`lchanadi”, - deb ta’kidlagan edi. O`zbekistonda so`nggi besh yilda xalqimiz va yurtimiz hayotida ro`y berayotgan tub o`zgarishlar, inqilobiy yangilanishlarni amalga oshirayotgan Shavkat Mirziyoyev timsolida ana shu buyuklik va mas’uliyatni ko`ramiz.

Yangi O`zbekiston - mamlakatimiz taraqqiyotining muhim strategik islohotlar davri. Yangi O`zbekiston me’mori va tashabbuskori bo`lgan Prezidentimiz tomonidan aniq yo`nalishlar, muayyan dasturlar taqdim etilayotgani ayni haqiqat. Ularda, eng avvalo, ilgarigi Renessanslar saboqlaridan xulosa chiqarib, harakatlarimizni zamonamiz talablari, davr ruhiyati bilan uyg`unlashtirmog`imiz lozimligi, milliy tariximizda ikki Uyg`onish davrlariga asos solgan ulug` ajdodlarimiz, alloma bobolarimizning orzu-intilishlari va armonlarini ro`yobga chiqarish, eng asosiysi, yosh avlodni bunyodkorlik, yaratuvchanlik, har doim o`qish va izlanishga da’vat mujassamdir.

Shiddatli va izchil islohotlar ilhomchisi bo`lgan Shavkat Mirziyoyev bilan uchrashgan Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko bir gal: “Shavkat Mirziyoyev bilan gaplashganimda, uning istiqboldagi yangi strategik rejalarini, shiddatini ko`rib qo`rqib ketaman” deganida haqli edi. Davlatimiz rahbarining azm-u shijoati bilan tarixiy o`zgarishlarga guvoh bo`lishimizga also shubha yo`q.

Mamlakatimizga kechayotgan bunday o`zgarish, yangilanish va yuksalish jarayonlarining noyobligini butun dunyo tan olmoqda. Amalga oshirilayotgan islohotlarimiz shunchalik yorqinki, ularni sezmaslik mumkin emas. Ta’bbir joiz bo`lsa, O`zbekiston go`yo yangidan tug`ildi. U oldingi davlat emas, balki Yangi O`zbekiston sifatida dunyoga ochildi.

O`zbekiston so`nggi besh yilda nafaqat ichki siyosatda, balki xalqaro munosabatlarda ham mutlaqo yangicha formatni tanlab, ochiq, pragmatik va amaliy tashqi siyosat olib borayotgani dunyo hamjamiyati tomonidan yuksak e’tirof etilib, mamlakatimizga nisbatan ishonch ruhi ha hamkorlikka bo`lgan intilish sezilarli darajada kuchaydi. Xususan, mintaqamizdagи davlatlar bilan do`stlik va yaxshi qo’shnichilik munosabatlari yo`lga qo`yildi. Qator rivojlangan mamlakatlar, xalqaro tuzilmalar bilan aloqalar jihatidan yangi bosqichga ko`tarildi.

Shu kabi uzoqni ko`zlovchi qadamlar pandemiya davrida ham qo`l keldi. Xitoy Xalq Respublikasida ingliz tilida chiqadigan “Beijing Review” xorijiy nashrida xabar berilganidek, O`zbekiston o`z islohotlari va iqtisodiyotni tiklash bo`yicha tezkor rejalar tufayli 2020-yilda Yalpi Ichki Mahsulot (YaIM) ning ijobi o`sishiga erishgan sanoqli davlatlar qatoriga kirdi.

O`z navbatida, Koreya Respublikasi vakili - Mokvon Universiteti vitse-prezidenti Ri Ik Xyon O`zbekistondgi o`zgarishlarni jamiyat hayotining barcha jabhasini isloh qiluvchi, siyosiy, huquqiy va ijyimoiy-iqtisodiy tizimlarni rivojlantiruvchi, ma`naviy yuksalish va demokratik qadriyatlarni qaror toptiruvchi tizimli jarayon, deb atadi. “Prezident Shavkat Mirziyoyevning tezkor islohotlaridan hayratdaman”, - deya xulosa qiladi u.

Polshalik yozuvchi, Nobel mukofoti laureati Genrik Senkevich yozganidek, hamjihatlik tufayli kichik davlatlar rivojlanadi, nizo sababli esa, hatto , buyuk davlatlar ham halokatga yuz tutadi.

Yangi Uyg`onish davri- yangi tamaddun poydevori. “Hech shubhasiz, o`z kuchimiz va imkoniyatlarimizga bo`lgan ishonch bizni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdek ezgu maqsad yo`lida birlashtirib, yanda kuchli va mustahkam qilmoqda. Bu intilishlar ulkan amaliy ishlarga aylanib, buyuk xalq harakati tobora kengayib bormoqda. Bunday qudratli safda bo`lishning o`zi katta baxt, katta sharafdir ”, - deb ta`kidlagan edi Shavkat Mirziyoyev.

Renessans - uyg`onish demak, ya`ni ilmiy uyg`onish, ma`rifatni anglash va shu asnoda asrlarga teng yillarni lahzalarda bosib o`tmioq demakdir. Bu jarayonni boshlab berish, uning poydevorini qo`yish esa kamdan-kam insonlarga nasib etgan. Buning uchun, avvalo, Alloh bergen inoyat, so`ngra millatni sevish, samimiyl insonparvarlik tuyg`usi mujassam bo`lmog`i darkor insonda.

Jaloliddin Rumiying bir hikmati doimo ilhombaxshdir: “Go`zal kunlar kelishini kutma, unga qarab botmog` ingni unutma”. O`zbekistondagi yangi Uyg`onish ma`rifati ham ayni shu tamoyilga asoslangnini, ezgu niyatlar amalga oshayotganini anglash esa yanada shijoat baxsh etadi.

Ta`kidlash kerakki, Uchinchi Renessans g`oyasi milliy ruhiyatimizga, xalqimiz orzu-umidlariga yaqin. Zotan, xalq ilgari oqqan daryosi yana qayta oqishini astoydil istaydi. Biroq, holva degan bilan og`iz chuchimaganidek, Renessans degan bilan u sodir bo`lib qolmaydi. Buning uchun har tomonlama puxta o`ylangan siyosat olib borilishi, xalqda ruhiy ko`tarilish, qat`iy irodali intilish yuz bermog`i zarur.

Yangi O`zekiston orzusi, bugungi kunlarimizga nisbatan aytganda, hozirgi davrning taqozosi, uning asl qiyofasini va omillarini belgilaydigan g`oyaviy-ma`naviy asos, xalqimizga xos yaratuvchanlik shijoati va keng ko`lamli islohotlarimizning yaqqol ifodasidir.

Mehnatlash xalqimizning azm-u shijoati, kuch-qudrati, eng muhimi, mustaqil taraqqiyotga bo`lgan komil ishonchi tufayli maqsadlarimiz sari dadil qadam qo`ymoqdamiz. Inson bolasi to tirik ekan, orzu-umidlar bilan yashashda davom etadi. Davlat va jamiyat uning orzu-maqsadlari ushalishiga yordam berishi zarur. Biz xuddi shunday davlatni - qalbimiz va shuurimizda mustahkam o`rin olib borayotgan Yangi

O'zbekistonni bunyod etishga Prezidentimiz boshchiligidagi qat'iy bel bog'ladik.

Yangi O'zbekiston - iqtisodiy farovon davlat, keng imkoniyatlat mamlakati. Bu har bir fuqaro boy bo'lsa - davlat boy bo`ladi, har bir oila farovon bo`lsa - mamlakat farovon bo`ladi, demakdir.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessans qurish yo`lida biz islohotlarimizning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo`lgan jamiyatimiz a'zolarining bor bilim va salohiyati, kuch va imkoniyatlarini, g`ayrat-shijoatini ishga solishimiz kerak. Shundagina Yangi O'zbekiston jahon maydonida kuchli salohiyat, munosib obro`-e'tiborga ega bo`lgan, har tomonlama obod va farovon mamlakatga aylanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Sh.Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent:"O'zbekiston" nashriyoti, 2021. 464 bet
2. Yangi O'zbekiston demokratik o`zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. - Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti, 2021. 184 bet
3. S.Safoyev. Yangi renessans: tarix saboqlari va taraqqiyotning zamonaviy tamoyillari. // "Yangi O'zbekiston" gazetasi, 2020 yil
4. A.Saidov. "Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessans: ma'no-mohiyati, zarurati va mushtarakligi". // [https://uza.uz/uz/posts/yangi-ozbekiston-va-uchinchi-renessans-mano-mohiyati-zarurati-va-mushtarakligi\\_295945](https://uza.uz/uz/posts/yangi-ozbekiston-va-uchinchi-renessans-mano-mohiyati-zarurati-va-mushtarakligi_295945) 2021 yil
5. I.Abdurahmonov, Uchinchi Renessans ilm-fan taraqqiyoti. <https://mininnovation.uz/uz/news/2334> 5 sentabr, 2020 yil
6. B.Zaripov. "Prezident Mirziyoyev butun dunyoda e'torof etilayotgan o'zbek diplomatiyasida yangi sahifa ochdi".// "Xalq so'zi" gazetasi, 18 avgust, 2021 yil.
7. R.Xolmurodov. "Oliy ta'lim: yuksak maqomga qachon, qanday erishamiz?" // "Xalq so'zi" gazetasi, 19-iyun, 2021 yil
8. M.Rahmatov, B.Zaripov. Bilimsizlik-insoniyat uchun eng qorong'u tundir. Konfutsiy hikmatlari. - Toshkent: "Zamin nashr", 2019. 59 b.
9. "Yangi O'zbekiston demokratik o`zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda". O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston" gazetasi bosh muharriri Salim Doniyorovning savollariga javoblari. // "Yangi O'zbekiston" gazetasi, №165(421), 2021 yil 17 avgust.